

**MARYAM ASHUROVA JAXON ADABIYOTIGA MUROJATI
(SHOX LAYLAK SPEKTAKLI TAHLILI ASOSIDA)**

Abbosjon Umurzoqov Shavkat o‘g‘li
UzDSMI “Qo‘g‘irchoq teatr san’ati”
kafedrasi o‘qituvchisi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada pedagog, dramaturg, rejissor O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan yoshlar murabbiysi, professor Maryam Ashurovaning nemis ertakchisi V.Gaufning “Shox laylak” ertagi asosida qo‘g‘irchoq teatrig uchun yozilgan, ikki parda, olti ko‘rinishdan iborat ertak-pyesasi haqida yozilgan.

Kalit so‘zlar: repertuar, pyesa, inssenirovka, dramaturg, sahna, teatr.

АННОТАЦИЯ

В статье педагог, драматург, режиссёр, тренер молодёжи, служившая в Узбекистане, профессор Марьям Ашуроева по мотивам немецкой сказки «Рогатый аист» В. Гауфа, написанной для театра кукол, два действия, шесть сцен. написано о сказке, состоящей из сказок.

Ключевые слова: репертуар, пьеса, инсценировка, драматург, сцена, театр.

O‘zbek teatr san’ati dramaturgiyasi jahon san’atiga tayanadi. Jumladan qo‘g‘irchoq teatr san’ati ham. Mustaqillikni dastlabki yillarda ham o‘zbek qo‘g‘irchoq teatri sahnalarda tarjima va inssenirovkalar aks etgan sahna asarlari teatrlar repertuaridan joy ola boshladi. Jumladan, Respublika qo‘g‘irchoq teatridagi “Oltin jo‘ja”(1992) spektakli muallifi V.Orlov, Samarqand viloyat qo‘g‘irchoq teatridagi “Xasan baxt izlaydi” (1993) spektakli muallifi YE.Speranskiy, Jizzax viloyat qo‘g‘irchoq teatridagi “O‘rdakcha” (1991) spektakli muallifi Petrov, shu teatr dagi “Sirli gippopotam” (1991) spektakli muallifi Levushkin kabi jahon xalqlar dramaturgiyasi namunalari sahna yuzini ko‘rdi. Shu kabi spektakllarni, pedagog, ham daramaturg ham rejissyorlik sohasida faoliyat olib kelayotgan ijodkor professor Maryam Ashurova ham jahon adabiyotiga ko‘plab murojat qilgan. Misol uchun “G‘oz jo‘jası” (1987) N.Gernet, “Chopog‘on kirpi” (1989) YE.Speranskiy ,“Oltin jo‘ja” (1994) V.Orlov kabi spektakllarni respublikamiz qo‘g‘irchoq teatrlarida sahnalashtirgan. Ayniqsa, Nemis ertakchisi V.Gaufning “Shox laylak” ertagi asosida qo‘g‘irchoq teatriga mo‘ljallab yozilgan, ikki parda, olti ko‘rinishdan iborat ertak-pyesa, qalami sayqal topgan, bu sohada yetarli tajribaga ega bo‘lgan Maryam

Ashurovaning qalamkash-dramaturg sifatidagi ijodiy yutuqlaridan biri deyish mumkin.

Maryam Ashurovaga nemis ertakchisining qahramonlariga sahnaviy xayot bag'ishlashda o'zi rahbarlik qilayotgan respublika qo'g'irchoq teatrining ijodiy imkoniyatlaridan to'liq foydalanishga harakat qilgan. Pyesa qo'g'irchoq teatri sahnasi uchun keng ko'lamli, murakkab, sehrli voqealar zanjiriga qurilgan.

Avvalambor, shuni aytish kerak, asarda ishtirokchilar soni talaygina, unda o'n bir personaj qatnashadi. Bulardan tashqari shoh Hosid saroyidagi xind, arabcha raqslar ijrochilarini inobatga oladigan bo'lsak, asarni sahnalashtirishda teatrning barcha ijodiy guruhlari, sexlari qatnashishi shartligi o'z-o'zidan ko'rinish turibdi, shunday ham bo'ldi. Pyessa muallifi va sahnalashtiruvchi rejissyor, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan yoshlar murabbiysi, professor Maryam Ashurova asar ruhiga mos, tomoshabop, qiziqarli, sirli voqealarga boy spektakl yaratish uchun haqiqatdan ham teatrning barcha imkoniyatlarni ishga solgan.

Xalq ertaklari qahramonlarning sirli, ajoyibu g'aroyib, kutilmagan sirli voqealarga boy dunyosi har doim yosh tomoshabinlar va qo'g'irchoq teatri ixlosmandlarini qiziqtirib kelgan.

Ertakdagagi voqealar tizimining o'zi antiqa. Pesa bosh qahramonlari shoh Xolif Xosid va uning vaziri Mansur qushlar va hayvonlar tilini, ular nimalar xaqida gaplashishini, baxorda bulbullar nimalar to'g'risida xonish qilishlarini bilishni orzu qilishadi. Saroy xizmatkori butun musulmon mamlakatlarini kezib, noyob mollar olib kelgan savdogar shoxning qabuliga kirishga muntazir ekanligini aytadi. Qabul marosimida savdogar sehrli qutichasini shohning eski do'ppi va sallasiga almashadi. Savdogar saroyni tark etgani zaxoti shoh Xolif Xosid va uning vaziri Masur sehrli qutichani ochishga urinishadi. Vazir qutichani ochib, uning ichidagi maktub shohga beradi. |Maktub so'zlarni na shoh va na vazir o'qiy oladi.

Jahli chiqqan shoh "Nahotki Bog'dodda bu yozuvni o'qiy oladigan biror kimsa topilmasa" deb dag'dag'a qiladi. Vazir Bog'dodda Salim donishmand degan odam borligini aytadi. Saroyga keltirilgan Salim donishmand xatda "Kimda kim qutidagi kukunni xiddab "Mo'tabar" so'zini aytsa, u o'zi istagan xayvon va qushga aylanib, ularning tilini butunlay tushinadigan bo'ladi. U yana asil holiga qaytmoqchi bo'lsa, sharqqa qarab, uch bor ta'zim qilib, shu so'zni takrorlasa yana o'z holiga qaytadi.

Ey inson, esingda bo'lsinkim, zinhor va zinhor hayvon va qushga aylanganingda "kulma", agar kulsang umrbod bu sexirli so'zni unutasan va bir umrga qush yoki hayvonligingcha qolib ketasan" deb yozilganini aytadi.

Shoh va vazir bu mo'jizaning siridan foydalanishga qaror qilishadi. Saroy ahli bu mo'jizadan voqif bo'lishmasin deb, pinhoniy saroyni tark etib, laylaklar suxbatlashayotgan boqqa borib, "Mo'tabar" so'zi sehrini ishlatib, laylakka aylanishadi.

Va bir-birlariga hazil qilib ustilardan kulishadi. Bu orada yovuz Kashnur hamtovoqlari yordami bilan taxtni egallaydi.

Bog‘dagi laylaklardan esa saroy yangiliklaridan habar topishadi. Ularning gaplariga qaraganda saroyda o‘zgarish, Xolif Xosid va vazir Mansur o‘rinlariga yangilari saylangan. Yangi shoh va vazir “...saroy darvozalarini berkitib, xech qaday qushlarni saroya kirgizmas, qushlar baxtsizlik keltiradi. Saroya uchib kirmoqchi bo‘lgan qushlarni esa kamondan otib o‘ldirishga ruxsat...” bergan.

Bu sovuq xabarni eshitgan shoh laylak va vazir laylak o‘z qiyofalariga qaytmoqchi bo‘lishadi. Lekin sehrli so‘zni eslasha olmaydi. Sababi sharti buzilgan. Kulmaslik kerakligini, unutishgan. Oqibatda laylak holatida saroya borib, taxtda o‘tirgan jodugar Kashnurni cho‘qishib haydamoqchi bo‘lishadi. Lekin Kashnurning hamtavoqlari bo‘lgan ko‘rshapalaklar xujumiga bardosh bera olmay saroyni tark etishga majbur bo‘lishadi.

Pesaning beshinchı ko‘rinishida shoh laylak va vazir laylak tashlandiq qasrda Ilon-xind podshosining yakkayu yagona qizi Luiza biln uchrashadi. Ilon sehrgar Kashnurning bir oyda bir marotaba shu tashlandiq qasrga kelishini, Luizani ham sehrlab ilonga aylantirgan o‘sha Kashnur ekanligini aytadi. Shoh laylak bilan vazir laylak haroba qasrga yashirin ravishda kelishadi.

Kashnur o‘z yordamchisi Mirzaga ular o‘z holiga qaytishi uchun sehrli “Mo‘tabar” so‘zini aytishlari kerak. Lekin shartni buzishgan, endi ular o‘z hollariga qaytishmaydi deb maqtanadi. Bundan foydalangan Xolif Xosid va vazir Mansurlar sehirli so‘zni ishlatib o‘z qiyofalariga qaytadi. Ilon ham go‘zal Luizaga aylanadi. Adolat qaror topadi. Yaxshilik yovuzlik ustidan g‘alaba qozonadi. Ertaklar yaxshilikka yetaklar shiori asar nihoyasida o‘z tasdig‘ini topadi.

Ushbu ertak ilk bor 1993-yilda Andijon viloyat qo‘g‘irchoq teatrida sahnalashtirilgan. Rejissyor M.Ashurova, sahnalashtiruvchi rassom M.Ivanyan, ertak ruhiga xos jozibador musiqa yozgan kompozitor D.Ozbekov, o‘ynoqi, sho‘x, milliy ruhga boy arabcha, yaponcha raqslarni voqealar tizimiga singdira olgan baletmeyster O.Ostaninalar spektaklning yaxlitligi va ta’sirchanligini oshirishga, voqealar sodir bo‘layotgan afsonaviy va sehrli muhitning kaloritini berishga harakat qilishgan.

Qo‘g‘irchoq teatri spektaklini tahlil qilganda, albatta qo‘g‘irchoq ustalarining mehnati, madaniyati va mahoratiga alohida e’tibor berish talab qilinadi. “Shox laylak” spektakli qahramonlarining obrazlarini yaratishda teatr ijodiy jamoasining mehnatlarini alohida qadrlash kerak. Qo‘g‘irchoq xarakteri, jumladan shoh Xolif Xosid, vazir Mansur, jodugar Kashnur obrazlariga xos libos, xatti-harakat va ijro usuli topilgan. Buni teatr jamoasining yutug‘i desa bo‘ladi.

2021-yilda ustoz bu asarni yana shu teatrda ijodkorlar bilan yangicha qarashlar bilan sahnalashtirdi. 2022-yilda Respublika qo‘g‘irchoq teatrlarining XIII an’anaviy

ko‘rik-festivalida ishtrok etib, mutaxasislar tomonidan yuqori baholanib faxrli o‘ringa munosib ko‘rildi. Bu albatta ustozning ijodiy salohiyati yuqori ekanligini ko‘rsatadi.

“Qo‘g‘irchoq teatrining katta-yu kichikni o‘ziga jalb etgan buyuk xislati-bu oddiy, jonsiz qo‘g‘irchoqning sahnada jonlanishidir. Haqiqiy aktyor, san’atkor bu ishni bajarganda butun qalbini, ichki va tashqi mahoratini ushbu bir parcha predmetga baxsh etadi, natijada jonsiz qo‘g‘irchoq ko‘z o‘ngingizda jonlanadi, unda insonga, jonli mavjudotlarga xos xislatlar butun jozibasi bilan namoyon bo‘la boshlaydi. Ko‘z oldingizda mo‘jiza ro‘y beradi. Siz o‘zingizni, qo‘g‘irchoqbozni va umuman shartlilikni unutasiz. Asar qahamoning dardi, olami, quvonchi-yu shodligi bilan yashay boshlaysiz”.¹

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. Qodirov M. An’anaviy teatr dramaturgiyası. –Toshkent: Yangi asr avlodı, 2006.
2. Qodirov M., Qodirova S. Qo‘g‘irchoq teatri tarixi. – T.: Talqin, 2006.
3. Ashurova M. Mehrdan yaralgan olam. Shaxsiy to‘plam, 2018.
4. X.Икромов “Қўғирчоқ театри режиссураси:изланишлар ва муаммолари” Театр журнали №5 2005 йил 22бет

¹ X.Икромов “Қўғирчоқ театри режиссураси:изланишлар ва муаммолари” Театр журнали №5 2005 йил 22бет